


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Samandarova Lola Sultanovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Goncharov Yuriy Mixaylovich**

Tarix fanlari doktori, professor  
Altay davlat universiteti Rossiya

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent  
Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),  
dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Urganch davlat universiteti

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Grodno davlat universiteti Belorusiya

## **IQTISODIYOT FANLARI**

### **Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

### **Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## **PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Slepko Yuriy Nikolayevich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

### **Xazova Svetlana Abduraxmanovna**

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma  
davlat universiteti Belorusiya

### **Kalandarova Madina Baxadirovna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## **TIBBIYOT FANLARI**

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Nazarova Maloxat Berdiboyevna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## **ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

### **Sultanov Samandar Maxmud o'g'li**

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

## FILOLOGIYA

|                                                                                                                                          |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>1. Yakubova Matluba Tajiboevna</b><br>SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI<br>BADIY AHAMIYATI.....          | 8  |
| <b>2. Rayxan Madaminova</b><br>HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....                                                | 17 |
| <b>3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul</b><br>HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....                                     | 25 |
| <b>4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna</b><br>ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA<br>O'ZIGA XOSLIGI.....       | 31 |
| <b>5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna</b><br>SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK<br>XUSUSIYATLARI.....   | 35 |
| <b>6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna</b><br>XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING<br>ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....       | 40 |
| <b>7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna</b><br>INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS..... | 44 |
| <b>8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva</b><br>O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....                                   | 51 |
| <b>9. Ихтиёр Бабаназаров</b><br>XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHOJIRIYATIDA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING<br>TUTGAN UYI.....                    | 56 |
| <b>10. Rayxan Madaminova</b><br>HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING<br>ASARDAGI O'RNI.....                     | 62 |
| <b>11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi</b><br>FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....                                      | 69 |
| <b>12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna</b><br>OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....                           | 73 |
| <b>13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi</b><br>SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....                                              | 78 |

## **IQTISODIYOT**

### **1. Karimova Madina**

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

### **2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna**

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

## **PEDAGOGIKA**

### **1. Davletov Erkaboy Yusbovich**

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

### **2. Usanova Zulfiya Bozorovna**

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

### **3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna**

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

## **PSIXOLOGIYA**

### **1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura**

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

## **TARIX**

### **1. Babajanova Nilufar Alisherovna**

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

### **2. Bekchanov Doniyor**

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

### **3. Tajiyeva Umida Rajabboevna**

O'ZBEK XALQI MADANIYATIDA TABIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

### **4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna**

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

### **5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли**

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

### **6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna**

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

|                                                                                                                                                                          |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>7. Marimov Muzaffar Erkinovich</b><br>XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA<br>UNDAGI O‘ZGARISHLAR.....                                | 137 |
| <b>8. Bekchanov Doniyor</b><br>AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.....                                                                                        | 141 |
| <b>9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li</b><br>XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI,<br>HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....                   | 145 |
| <b>10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich</b><br>QUR‘ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.....                                                | 149 |
| <b>11. Misrbekova Makhliyo</b><br>THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...                                                                    | 155 |
| <b>12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich</b><br>YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN<br>O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....                 | 161 |
| <b>13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna</b><br>QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV<br>BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI..... | 167 |

**Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi-**  
Ma'mun universiteti,  
“Roman-german filologiyasi” kafedrası  
ingliz tili o'qituvchisi

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670104>

### ANNOTATSIYA

Frazeologiya tilshunoslikning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, u tildagi turg'un birikmalarning ma'nosi va tuzilishini o'rganish bilan shug'ullanadi. Ushbu maqolada frazeologiya sohasining rivojlanishi, o'rganilish ko'lami haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek frazeologiyaning asosiy obyekti hisoblangan frazeologik birliklar tahlil qilinib, ularning turlari namunalar yordamida farqlangan va tildagi ahamiyati batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, frazeologiya, frazeologik birliklar, ko'chma ma'no, leksema, iboralar

**Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi –**

Mamun University,  
Department of Romance-Germanic Philology,  
English Language Instructor

## PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR STUDY

### ABSTRACT

Phraseology is one of the main branches of linguistics, which studies the meaning and structure of stable combinations in the language. This article provides data about the development of the field of phraseology and the scope of its study. Additionally, phraseological units, which are the main object of phraseology, are analyzed, their types are distinguished using examples, and their significance in the language is clearly explained.

**Key words:** Linguistics, phraseology, phraseological units, figurative meaning, lexeme, idioms.

**Абдуллаева Пошшажон Усмон кизи –**

Университет Мамуна,  
кафедра романо-германской филологии,  
преподаватель английского языка

## ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ИХ ИЗУЧЕНИЕ

## АННОТАЦИЯ

Фразеология является одним из основных направлений лингвистики, занимающимся изучением значения и структуры устойчивых словосочетаний в языке. В данной статье рассматривается развитие фразеологии и масштабы её изучения. Также проводится анализ фразеологических единиц как основного объекта фразеологии, выделяются их типы с помощью примеров, подробно раскрывается их значение в языке.

**Ключевые слова:** лингвистика, фразеология, фразеологические единицы, переносное значение, лексема, обороты речи.

## KIRISH VA DOLZARBLIGI

Bugungi kunga kelib frazeologiya sohasi tilshunoslikda olib borilayotgan ko'plab izlanishlarning tadqiqot vositasi sifatida fanda mustahkam o'rin egallab, uning taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Frazeologiya tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri hisoblanib, u asosan ko'chma ma'noga ega frazeologik birliklar, idiomalar va turg'un iboralarni o'rganish bilan shug'ullanadi. "Frazeologiya" atamasi yunoncha "*pharsis*" - tushuncha, ifoda va "*logos*" - ta'limot so'zlaridan olingan va u ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalarni o'rganadi. Rus tilshunosi V.N. Yartseva tomonidan tahrir qilingan lingvistik ensiklopedik lug'atga ko'ra, "frazeologiya" tushunchasining birinchi ta'rifi quyidagicha: Frazeologiya - tilshunoslikning frazeologik birliklar - turg'un idiomatik so'z birikmalarini o'rganish bilan shug'ullanadigan bo'limi. Boshqa tomondan, frazeologiyani til tarkibidagi frazeologik birliklarning jamlanmasi deb ham atash mumkin [1]. Ushbu ta'rifdan shuni xulosa qilish mumkinki, frazeologiyaning asosiy obyekti frazeologik birliklar hisoblanadi. Frazeologizmlar- ma'no butunligiga ega bo'lib, nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan va nutqda tayyor holda uchraydigan ko'chma ma'noga ega turg'un birikmalardir. Shuningdek ular xalqning madaniyati, urf-odatlar, qadimiy an'analar, tafakkuri va o'ziga xos xulq-atvori bilan bog'langanligi sababli tilning eng ko'p madaniy ma'lumotlar tashuvchi vositalari hisoblanadi.

## METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Frazeologiyaga doir tadqiqotlar jahon tilshunosligida alohida o'rin tutadi. Hozirgi kungacha frazeologik birliklarni o'rganish yuzasidan ko'plab tilshunoslar tadqiqot ishlari olib borishgan. Uning umumnazariy asoslari dastlab fransuz tilshunosi Sharl Balli tomonidan o'rganilgan. Sh. Balli "Précis de stylistique" nomli asarida so'z birikmalarini tahlil qilib, ularning tashqi va ichki belgilarini bir-biridan farqlagan edi. Uning nazariyalariga asosan anglatgan ma'nolari va sintaktik o'ziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlitligicha qo'llaniladigan turg'un birikmalar frazemalar deb ataladi.

Tilshunos A.V. Kuninning nazariyasiga ko'ra, frazeologik birliklar leksemalarning to'liq yoki qisman ko'chma ma'noli turg'un birikmasidir. Tor ma'noda frazeologiya so'zning leksik ma'nosini tahlil qilishni asosiy mezon sifatida tanlab, turg'un birikmalarni o'rganadi, keng ma'noda esa frazeologik birliklarning turlari, strukturasi, semantik vazifalarini hisobga olgan holda o'rganish bilan shug'ullanadi [2].

Frazeologiya sohasining chuqur tadqiq etilishi va taraqqiyotiga jahonda mavjud maktablar ham ulkan hissa qo'shdi. Masalan, V.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologiya maktabi va 1999-yilda asos solingan Yevropa frazeologiya jamiyati frazeologik birliklarning o'rganilishi va ushbu sohaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklarni ilmiy jihatdan o'rganishga doir tadqiqotlar olib borildi va frazeologik lug'atlar yaratildi. Mashhur o'zbek tilshunoslari Sh. Rahmatullayev, H. Berdiyev, E. Umarov, A. Mamatov, B. Yo'ldoshevlar tomonidan frazeologizmlarning struktur, semantik, grammatik, uslubiy, sintaktik va funksional aspektlari keng o'rganildi. Tilshunos Sh.Rahmatullayevning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli doktorlik dissertatsiyasi va shu nomli monografiyasi frazemalarning ilmiy tadqiqiga bag'ishlangan dastlabki tadqiqot ishlari hisoblanadi. Bu tadqiqotlarda frazemalar lug'aviy birliklar sifatida o'rganilib, ularning grammatik xususiyatlari keng yoritildi. O'zbek tilshunosi Y. Pinxasov frazeologik birliklarni semantik jihatdan tasnif etishda akademik V.V.Vinogradovning bu sohada

mavjud klassifikatsiyasini asos sifatida qabul qilgan holda taqdiqot olib boradi, ammo o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlariga ham e'tibor qaratadi. Y. Pinxasov frazeologik birliklarni grammatik (morfologik, sintaktik) tomondan tahlil qilganda, ularning so'zga, so'z birikmasiga va gapga teng bo'lib kelish xususiyatlarini ajratadi. Frazeologik iboralarni etimologik jihatdan qaysi til elementi ekanligini aniqlash va zamonlar o'tishi bilan u iboralarning deformatsiya va modernizatsiyaga uchraganligini ko'rsatadi [3] Frazeologizmlar mahalliy dialekt va shevalarga tegishli bo'lishi, diniy qarashlarni ifodalashi, turli kasb-hunar va turmushning turli sohalariga aloqador bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Bu esa iboralarni stilistik jihatdan o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

Tilshunos B.Yo'ldoshev "Frazeologik uslubiyat asoslari" nomli kitobida frazeologik sinonimlarning frazeologik variantlardan farqlarini tahlil qilib, ularning qo'llanilishdagi farqlarini ko'rsatadi. Frazeologik sinonimlarning ham biri o'rnida boshqasidan foydalanish mumkin, lekin sinonim iboralar uslubiy jihatdan o'zaro mos bo'lsa, adabiy-uslubiy normaga muvofiq kelsagina o'zaro o'rin almasha oladilar" [4] deya ta'kidlaydi.

Ushbu maqolani yoritish jarayonida turli xil metodlardan foydalanildi. Asosan, analiz, sintez, kuzatuv, lingvistik metodlardan tavsifiy, qiyoslash va distributiv tahlil usullari yordamida maqola mavzusi keng ochib berildi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Frazeologik birliklar muayyan shaklga ega bo'lib, ularning yasalishi uchun leksemalar moddiy asos bo'ladi. Turli leksemalarning xilma-xil semantik jihatdan o'xshash yoki o'xshash bo'lmagan birikmalari frazemalarni shakllantiradi va ularning tarkibida turli ma'noli leksemalar ishtirok etadi. Bu esa leksemalarning frazeologik kombinatsiyalar tarkibidagi o'rnini aniqlashni taqozo etadi. O'zbek tili frazemalarining paydo bo'lishida faol va nafaol leksemalar qatnashib, ular frazemalarning nafaqat shaklan, balki semantik qaror topishida asos bo'ladi [5].

Tilshunoslikda frazemalar tarkibidagi so'zlar leksik ma'nosini yo'qotgan, so'zdan tashqaridagi til hodisasi sifatida qaralsa, ayrim tilshunoslar frazeologik birliklar tarkibidagi komponentlar o'zlarining leksik xususiyatlarini saqlab qoladi, biroq bu turli frazeologik birliklarda har xil ko'rinishda yuz beradi degan fikrni e'tirof etadilar. Ba'zi tilshunoslar so'zlar frazemalar tarkibiga kirgandan keyin ham o'zlarining leksik ma'nolarini saqlab qolishini e'tirof etadilar. Ammo ayrim frazemalarda leksik ma'no to'liq saqlanadi, boshqalarida esa leksik ma'no biroz susayishi mumkin. Masalan, *og'zidan gullamoq* iborasini tahlil qiladigan bo'lsa- o'ylamasdan gapirmoq, noo'rin gaplarni gapirmoq ma'nosini anglatib, tarkibidagi *og'iz* komponenti semantik tayanch vosita bo'lsa, *gullamoq* so'zi esa grammatik tayanch komponentdir. Komponentlarning leksik xususiyatlari ibora tarkibida qatnashgan leksemalar orasidagi sintaktik bog'lanishni ta'minlaydi.

Mashhur rus tilshunosi V.Vinogradov frazeologizmlarni ma'noni qanday anglatishiga asosan uch guruhga ajratadi: *frazeologik birlashmalar*, *frazeologik chatishmalar*, *frazeologik qo'shilmalar* va *frazeologik iboralar*. Uning tadqiq qilishicha, frazeologik birliklarning mohiyati ularning shakily turg'unligidadir. Ular nutq jarayonining har bir aktida alohida so'z shaklida paydo bo'lmaydi, balki inson ongida tayyor holda aks etadi va muloqotda qo'llaniladigan kamida ikkita mustaqil so'zning ma'no jihatdan yaxlitlanishini yuzaga keltiradi [6]. Tarkibidagi komponentlaridan biri o'z ma'nosida, qolganlari ko'chma ma'noda qo'llanuvchi frazeologizmlar *frazeologik birlashmalar* deyiladi, *yasama kulgi*, *boshini olib ketdi*, *yog' tushsa yalagudek* kabi iboralarni namuna sifatida keltirish mumkin. Faqat yaxlit holdagina ma'no anglatuvchi, butunlay ko'chma ma'noga ega frazemalar esa *frazeologik chatishmalar* deb ataladi va quyidagilarni misol tariqasida aytsak bo'ladi, *esim chiqib ketdi*, *bosh tortdi*, *to'nini teskari kiymoq*. To'g'ri va ko'chma ma'nolarda qo'llanish xususiyatiga ega turg'un so'z birikmalari frazeologik qo'shilmalar (*yerga qaradi*, *boshini ko'tardi*) va ko'chma ma'noda qo'llanilmasa ham ko'pincha gapga to'liqlik yoki jozibadorlik berish maqsadida tez-tez qo'llanib turadigan iboralar *frazeologik iboralar* sanaladi.

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning komponentlari ilk bor Sh.Rahmatullayev va A.Isayevlarning tadqiqotl ishlarida ilmiy tahlil etilgan. A. Isayev o'z tadqiqotlarida somatik (inson tana qismlariga aloqador so'zlar) leksemalarning frazeologik birliklarni hosil qilishdagi

oʻrnini, xususan *koʻz, bosh, yuz, bet* kabi leksemalarning frazemalarni shakllantirishda faol ekanligini taʼkidlaydi [7]. Shuni taʼkidlash joizki, mazkur tadqiqotlarda somatik leksemalarning frazemalarni shakllantirishdagi ahamiyati va xususiyatini ilmiy tahlil qilishga emas, balki til materiallarini qayd qilishga koʻproq eʼtibor qaratilgan. Tilimizdagi *bosh, qoʻl, oyoq, yuz, quloq, koʻz* kabi soʻzlar inson tana aʼzolaridan birini ifodalashi bilan somatik leksemalar sanaladi. Masalan, *koʻz ostiga olmoq, boshi osmonga yetmoq, devorning ham qulogʻi bor* va boshqalar.

### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, frazeologiya tilshunoslikning eng rivojlanayotgan sohasi hisoblanadi. Hozirgi kungacha ushbu yoʻnalishni oʻrganish yuzasidan koʻplab tadqiqot ishlari olib borilgan. Shuningdek uning asosiy obyekti hisoblangan frazeologik birliklar tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilinmoqda. Mazkur maqolada frazeologiya va frazeologizmlarni oʻrganish boʻyicha tadqiqot qilgan olimlarning ishlari tahlil qilindi va ularning turlari farqlandi.

### Iqtiboslar/References/Сноски

1. Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. 2-е изд., доп. – М.: Большая рос. энциклопедия, 2002. – 709 с
2. Kunin A. V. Zamonaviy ingliz frazeologiyasi kursi: Xorijiy tillar fakulteti talabari uchun oʻquv qoʻllanma.- M.: Feniks, 1996.
3. Пинхасов Я.Д. Хозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. Тошкент: Ўқитувчи, 1969.
4. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, СамДУ нашри, 1999. 71-б.
5. Алматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. Фан. номз. Дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 14
6. Виноградов В.В. Избранные Труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С.121
7. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1977. - 22 с.

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадqiqот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000